

INGLIZ TILIDA URG`UNING ROLI VA AHAMIYATI

Marjona Abdullayeva, Sarvara Alimboyeva

O`zDJTU, talabalar

Ilmiy rahbar: Bakirova Xilolaxon Botiraliyevna

Anontatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi urg`uli so`zlarning ahamiyati, ularning tarjimashunoslikda qanday o`rin tutishi, kommunikatsiyadagi roli haqida fikr yuritadi. Ingliz tilida urg`uli so`zlar nutqning asosiy mazmunini anglatishda va muloqotning samaradorligini oshirishda muhim rol o`ynaydi. Ushbu maqola ingliz tilidagi urg`uli so`zlar qanday ishlatilishi, ulardan tarjimada qanday foydalanish haqida tushuncha beradi.

Kalitso`zlar: urg`u, kommunikatsiya, talaffuz, madaniy xususiyatlar, odatiy urg`ular, ko`p bo`g`inli urg`ular, lingvistika, semantik, intonatsiya, bo`g`in, laqja, sintaktik, fonologikomillar, strategiya, urg`uning ahamiyati, urg`u haqidagi tadqiqotlar.

So`zlar, ovozlari va tovushlar – tilning eng muhim unsurlari hisoblanadi. Biroq, so`zlarning shaklidan ko`ra ularni qanday aytish, ya`ni talaffuz qilish ko`pincha yanada kata ahamiyat kasb etadi. Tilni o`rganishda biz ko`pincha lug`at boyligini, grammatikani bilish kerak deb hisoblaymiz, ammo ularning to`g`ri tushunilishi va muloqot jarayonida aniq yetkazilishi uchun so`z urg`usining o`rni beqiyosdir. Ayniqsa, ingliz tilida bir so`zning noto`g`ri urg`ulanishi boshqa bir so`z yoki umuman tushunarsiz ma`noni hosil qilishi mumkin.

Bundan tashqari, har bir til urg`u qoidalari orqali o`z o`ziga xos ritm va ohangni yaratadi, bu esa u tilni tinglagan kishiga nafaqat tilning o`zini, balki undagi madaniy xususiyatlarni ham his qilish imkonini beradi. Bu maqolada, ingliz va o`zbek tilidagi urg`u qoidalari hamda ularning o`ziga xosliklari haqida so`z yuritimiz. Urg`u qanday o`rganiladi, qanday farqlar mavjud va u qaysi jihatlari bilan muloqotni shakllantiradi – ushbu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

So`z urg`usi deganda, so`zdagi bir bo`g`inning boshqalarga qaraganda kuchliroq va aniqroq aytilishi tushuniladi. Urg`u faqat baland ovozda aytilsa, u baland urg`u, yakka uzunlik orqali hosil qilinganda esa miqdor urg`usi deyiladi. Har xil kuchaytirilgan xususiyatlarning kombinatsiyasi natijasida yuzaga kelganda, bu bo`g`in urg`usi yoki dinamik urg`u deb ataladi, ingliz tilida o`zgaruvchan so`z urg`usi deb ataladigan narsa qo`llaniladi. Ma`lumki, ingliz tilida urg`uga alohida e`tibor qaratiladi, sababi so`zning ma`nosini o`zgartirishi mumkin va shuningdek, oson tushunilishini ta`minlaydi.

Xo`sh, ingliz tilida bir so`zning urg`usi noto`g`ri qo`yilsa, ma`no qanday o`zgarishi mumkin? Mashhur tilshunos olim Daniel Jonesning fikricha, ingliz tilida urg`uning noto`g`ri qo`yilishi nafaqat talaffuzni, balki so`zning butunlay boshqa ma`no anglatishiga ham sabab bo`ladi. Masalan, “REcord” (yozuv) va “reCORD” (yozmoq) so`zlari urg`uning talaffuz va ma`no ta`siriga yaqqol misol bo`la oladi.



Endi odatiy urg`u qoidalariga to`xtalsak, odatda otlar va sifatlarda ikki bo`g`inli so`zlarning birinchi bo`g`iniga urg`u tushadi. Misol uchun, “**Table**” (stol), “**HAPpy**” (baxtli). Fe`llarda esa odatda, ikkinchi bo`g`in urg`ulanadi. Masalan, “**beGIN**” (boshlamoq), “**aRRIVE**” (yetib kelmoq).

Ko`p bo`g`inli so`zlarda urg`u tushish qoidalari murakkab tus oladi. Misol qilib aytadigan bo`lsak, so`nggi ikki bo`g`inda –ic, -sion yoki –tion bilan yakunlanadigan so`zlarda oxirgi bo`g`inga urg`u tushadi (second from end). Masalan, “at**TRACtion**”. Odatda, -cy, -ty, -phy, -gy kabi so`nggi bo`g`in so`zlarda uchinchi bo`g`inga urg`utushadi (third from end). Masalan, “de**MO**cracy”, “pho**TO**graphy”.

Ingliz tilida urg`u milliy talaffuz xususiyatlariga qarab ham farq qilishi mumkin. Masalan, Britaniya va Amerika lahjalarida ingliz tilidagi ba`zi so`zlarning urg`u o`rni turlicha: Laboratory Britaniyada urg`u so`zning ikkinchi bo`g`iniga tushadi: “la**BO**ratory”, Amerikada esa urg`u birinchi bo`g`inga tushadi: “**LAB**oratory”. Advertisement: Britaniyada ikkinchi bo`g`in urg`ulanadi “adver**TISE**ment”. Amerikada esa ikkinchi bo`g`in urg`ulanadi: “**Ad**vertisement”.

Britaniya lahjasida “**ate**” qo`shimchasi bilan tugaydigan ayrim fe`llarda oxirgi bo`g`in urg`ulanadi: “contem**PLATE**”, Amerika lahjasida esa birinchi bo`g`in “**CON**template”.

Fransuztilidan o`zlashtirilgan so`zlar Britaniyada so`nggi bo`g`in urg`ulanadi, “ga**RAGE**”, Amerikada esa ko`pincha birinchi bo`g`in urg`u oladi, “**GA**rage”.

Ko`p bo`g`inli so`zlarda Britaniyada oxirgi bo`g`inlar urg`ulanadi: “admi**NI**strative”, Amerikada esa birinchi yoki ikkinchi bo`g`inga tushadi: “**AD**ministrative”.

Bu farqlar talaffuz va tushunishga o`zta`sirini ko`rsatishi mumkin. Britaniya va Amerika lahjalari o`rtasidagi farqlar, talaffuzdagi lahjaviy farqlar va intonatsiyaga bog`liq hisoblanib, har ikkalasi ham o`ziga xos talaffuz qoidalariga ega. “Urg`u va intonatsiya so`zning semantic va sintaktik mazmuniga ta`sir qiladi” deb ta`kidlaydi A.C. Gimson o`zining “ An Introduction to the Pronunciation of English kitobida”. Bundan tashqari John Wells o`zining “Longman Pronunciation Dictionary” asarida so`z urg`usini o`rganishda fonetik va fonologik omillarni birgalikda hisobga olish kerakligini ta`kidlaydi. U so`z urg`ularini milliy talaffuz xususiyatlariga qarab farqlash masalalarini ham yoritgan. Bu olimlarning tadqiqotlari orqali urg`ular haqida ko`proq bilim olish va ingliz tili talaffuzini chuqur o`rganish mumkin.

Ingliz va o`zbek tillarida urg`uning o`rni va ahamiyati sezilarli darajada farqlanadi. O`zbek tilida urg`u odatda oxirgi bo`g`inga tushib, so`z ma`nosiga kata ta`sir ko`rsatmaydi. Ingliz tilida esa urg`u so`zning boshqa bo`g`inlariga tushib, ma`no va Grammatik vazifani o`zgartirishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bir xil yozilgan **Record** va record so`zlari urg`uga qarab turlicha ma`no anglatadi, o`zbek tilida esa so`zning qaysi bo`g`iniga urg`u tushishidan qat`iy nazar, ma`no o`zgarmaydi. Bu farqlar ingliz va o`zbek tillari o`rtasidagi urg`u tizimining o`ziga xos tomonlarini aks ettiradi.

Ingliz tilini o`rganayotganlar uchun so`z urg`usini tog`ri aniqlash qiyin bo`lishi mumkin. Ingliz tilida qat`iy urg`u qoidalari mavjud emasligi sababli, ko`p yodlash talab qilinishi mumkin. Noto`gri urg`u so`zning ma`nosini tushunishni qiyinlashtiradi



va tinglovchilarga tushunarsiz bo`lib qolishi mumkin. Bunda ingliz tilidagi urg`uni o`rganishning bir qancha strategiyalari mavjud bo`lib, bularning birinchi so`zlarni tinglab o`rganish. Talaffuz lug`atlaridan foydalanish yoki ingliz tili birinchi tili hisoblangan insonlar bilan suhbatlashish va ularni tinglash orqali so`z urg`ularini o`rganish muhim. So`zlarni kontekstda qo`llash orqali ham urg`u o`rnini yodlash osonlashishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, so`z urg`usi va talaffuz qoidalari har bir tilning o`ziga xos ohang va mazmunini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida urg`uning noto`g`ri qo`llanishi so`zning ma`nosini o`zgartirib yuborishi yoki tushunishni qiyinlashtirishi mumkin, bu esa to`g`ri muloqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o`rganuvchilar uchun so`z urg`ularini to`g`ri qo`yish va talaffuz qilish juda muhim, chunki bu nafaqat so`zning to`g`ri anglanishiga, balki uning mazmuniga ham ta`sir qiladi. Shuningdek, Amerika va Britaniya ingliz tilidagi urg`u farqlari bu tilning boyligini va madaniy jihatdan xilma-xilligini aks ettiradi. Maqola davomida keltirilgan tadqiqot va tavsiyalar ingliz tilidagi urg`uni o`rganishda fonetik va fonologik omillarga e`tibor qaratish lozimligini ko`rsatadi. Ingliz tilini yanada chuqur o`rganish va ravon so`zlash uchun urg`uni yodlash va til egalari bilan muloqot qilish orqali talaffuz qoidalarini amaliyotda qo`llash samarali usullar hisoblanadi. Shu bilan birga, ingliz va o`zbek tilidagi urg`u tizimlarining farqlarini anglash ikki tilni solishtiruvchi lingvistik tadqiqotlar uchun ham qimmatli asos bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Gimson, J.C. An Introduction to the Pronunciation of English. London: Edward Arnold, 1962.
2. Wells, J.C. Longman Pronunciation Dictionary. Harlow: Longman, 2008.
3. Jones Daniel. English Pronouncing Dictionary. Cambridge University Press, 2006.
4. Roach. Peter. English Phonetics and Phonology: A Practical course, Cambridge University Press, 2009.
5. Wikipedia: [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Stress_\(linguistics\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Stress_(linguistics))
6. Monrad-Krohn, G. H (1947). “ the prosodic quality of speech and its disorders (a brief survey from a neurologist`s point of view)”. AstaPsychiatricaScandinavica. 22 (3-4): b255-269.